

Qashqadaryo viloyatida kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2024- yil uchun


- I. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni
- II. Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rinlari soni
- III. Umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
- IV. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari
- V. Sanoat
- VI. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- VII. Qurilish
- VIII. Xizmatlar
- IX. Savdo faoliyati
- X. Ovqatlanish bilan ta'minlash
- XI. Innovatsiya

I. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni (2025- yilning 1- yanvar holatiga)

2025- yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 22452 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining eng ko'pi savdo sohasida 8574 ta (jamiga nisbatan 38,2 %) sanoat tarmoqlarida 2725 ta (12,1 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 3924 ta (17,5 %), qurilishda 1901 ta (8,5 %), yashash va ovqatlanishda 1495 ta (6,7 %), tashish va saqlashda 736 ta (3,3 %) qayd etilgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (2025- yilning 1- yanvar holatiga)





Kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko'rsatkichlari

2024- yilda Qashqadaryo viloyati bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 65 444 tani tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 59 600 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi Qarshi shahri (20 850 ta), Qarshi tumani (6 047 ta), Shahrisabz shahri (4 644 ta), Kitob tumani (4 608 ta), Koson tumani (4 060 ta) va Yakkabog' tumanida (3 476 ta) to'g'ri kelgan.

2024- yilda Qashqadaryo viloyati bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 13 376 tani tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayol xodimlar soni 11 412 tani tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan ayollar sonining eng ko'pi Qarshi shahri (5 074 ta), Shahrisabz shahri (1 293 ta), Qarshi tumani (1 115 ta), Kitob tumani (882 ta), Koson tumani (711 ta) va Yakkabog' tumanida (696 ta) to'g'ri kelgan.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar sonining eng ko'pi savdoda (18851 nafar), xizmatda (15798 nafar), qurilishda (14467 nafar), sanoatda (11281 nafar), qishloq xo'jaligida (5047 nafar) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (4095 nafar) ga to'g'ri kelgan.

2024- yilda Qashqadaryo viloyati bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 1 339,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 1 062,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Qarshi shahri 461,9 mlrd so'm, Qarshi tumani 108,2 mlrd so'm, Nishon tumani 94,9 mlrd so'm, Shahrisabz shahri 89,7 mlrd so'm, Kitob tumani 86,5 mlrd so'm, Koson tumani 70,9 mlrd so'm, va Yakkabog' tumaniga 67,4 mlrd so'm to'g'ri kelgan.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha 2024- yilda mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 223,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmi 169,5 mlrd so'mni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan ayollarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar hajmining eng ko'pi Qarshi shahri 86,8 mlrd so'm, Shahrisabz shahri 21,22 mlrd so'm, Qarshi tumani 17,6 mlrd so'm, Kitob tumani 15,6 mlrd so'm, Yakkabog' tumani 13,4 mlrd so'm, Shahrisabz tumani 12,6 mlrd so'm va Koson tumaniga 10,3 mlrd so'm to'g'ri kelgan.

2024- yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarning eng ko'p hajmi qurilishda (327,2 mlrd so'm), savdoda (326,8 mlrd so'm), sanoatda (270,4 mlrd so'm), boshqa



turdagi xizmatlar (128,5 mlrd so'm), Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (100,1 mlrd so'm) hamda yashash va ovqatlanish (69,8 mlrd so'm)ga to'g'ri kelgan.

II. Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rinlari soni

2024- yil hisobot yilida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan yangi ochilgan ish o'rinlari soni 20 692 tani tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha yangi ochilgan ish o'rinlari sonining eng ko'pi Qarshi shahri (7122 ta), Shahrisabz shahri (1341 ta), Qarshi (2604 ta), Koson (1644 ta), Kitob (981 ta), G'uzor (946 ta) va Yakkabog' (864 ta) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 75,2 ming kishini tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil hisobot yilida mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 70,9 ming kishini tashkil etgan.

Tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 2024- yilda 391 kishi. Ma'lumot uchun: 2023- yil hisobot yilida tashqi o'rindoshlarni yillik o'rtacha soni 221 kishini tashkil etgan.

Fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 2024- yilda 517 kishini tashkil etgan. Ma'lumot uchun: 2023- yil, hisobot yilida fuqarolik huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni 104 kishini tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni (birlikda)

	Ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda		Ulushi, % da
	2023- yil.	2024- yil.	
Qashqadaryo viloyati:	3 592	3 758	100,0
Qarshi shahri	842	926	24,6
Shahrisabz shahri	218	218	5,8
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	336	320	8,5
Dehqonobod	368	424	11,3
Qamashi	198	208	5,5
Qarshi	258	296	7,9
Koson	154	170	4,5
Kitob	212	186	4,9
Mirishkor	108	108	2,9
Muborak	136	118	3,1
Nishon	120	158	4,2
Kasbi	144	116	3,1
Ko'kdala	44	34	0,9
Chiroqchi	50	54	1,4
Shahrisabz	222	226	6,0
Yakkabog'	182	196	5,2



2024- yilda Qashqadaryo viloyati bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 3 758 tani tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 166 taga ko'p demakdir. Ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarning, jami faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sonidagi ulushi 15,9 % ni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar sonining eng ko'pi Qarshi shahri 926 ta (24,6 %), Dehqonobod tumani - 424 ta (11,3 %), G'uzor tumani - 320 ta (8,5 %), Qarshi tumani - 296 ta (7,9 %) va Shahrisabz tumaniga - 226 ta (6,0 %) to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarda o'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni 3 191 kishini tashkil qildi. Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar 75 010,8 mln so'mga to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy mehnat ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	2023- yil	2024- yil
O'rtacha ish haqini hisoblash uchun qabul qilinadigan mazkur korxonada mehnat daftarchalariga ega bo'lgan xodimlar soni	kishi	3 787	4 765
Mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar	mln. so'm	56 474,7	75 010,8
Hisobot yili oxiriga mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlar soni	kishi	4 297	5 495
shu jumladan oliy ma'lumotli	kishi	1 104	1 256
Hisobot yilida yangi ochilgan ish o'rinlari soni	birlik	904	1 215
Hisobot yilida qisqartirilgan ish o'rinlari soni	birlik	540	652
Hisobot yilida mazkur korxonada mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan xodimlarning yillik o'rtacha soni	kishi	4 378	5 283
Tashqi o'rindoshlarning yillik o'rtacha soni	kishi	60	52
Fuqarolik-huquqiy tusda tuzilgan shartnomalar asosida ishlayotgan xodimlarning yillik o'rtacha soni	kishi	43	24

III. Umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar

2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 29 334,0 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum miqdori va ulushining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'pi savdo sohasida 15 785,9 mlrd so'm (53,8 %), qurilishda 5 144,9 mlrd so'm (17,5 %), sanoat tarmoqlarida 4 860,6 mlrd so'm (16,6 %), Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 1 417,1 mlrd so'm (4,8 %), boshqalar 706,6 mlrd so'm (2,4 %), yashash va ovqatlanishda 601,0 mlrd so'm (2,0 %), tashish va saqlashda 456,2 mlrd so'm (1,6 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 256,7 mlrd so'm (0,7 %), axborot va aloqada 105,4 mlrd so'm (0,4 %) ni tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Qarshi shahri (11 034,9 mlrd so'm),



Shahrisabz shahri (2 034,6 mlrd so‘m), Koson (2462,3 mlrd so‘m), Qarshi (2 183,8 mlrd so‘m), Kitob (1 882,3 mlrd so‘m) va G‘uzor (1 316,3 mlrd so‘m) tumanlariga to‘g‘ri kelgan.

2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya‘ni foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) miqdori 886,6 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy natijani 381,9 mlrd so‘mga ko‘payishiga olib keldi.

Shuningdek, 2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 643,2 mlrd so‘mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan sof foydani 315,0 mlrd so‘mga ko‘payishiga olib keldi.

Hududlar bo‘yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya‘ni foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining eng ko‘pi Qarshi shahri (274,6 mlrd so‘m), G‘uzor (208,8 mlrd so‘m), Nishon (80,7 mlrd so‘m), Kitob (110,0 mlrd so‘m), va Qarshi (70,1 mlrd so‘m) tumanlariga to‘g‘ri kelgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) miqdorining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘pi savdo sohasi – 481,0 mlrd so‘m (54,2 %), qurilish – 309,6 mlrd so‘m (34,9 %), axborot va aloqa – 35,2 mlrd so‘m (4,0 %), boshqa turdagi xizmatlar – 35,1 mlrd so‘m (3,9 %), sanoat – 34,1 mlrd so‘mni (3,8 %) tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar) va sof foydasi (zarar) miqdori (mlrd so‘m)

	Foyda solig‘ini to‘lagunga qadar foyda (zarar)		Sof foyda (zarar)	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Jami	504,7	886,6	328,2	643,2
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	25,4	-54,1	10,6	-63,3
Sanoat	-32,0	34,1	-54,8	-10,4
Qurilish	154,7	309,6	123,1	270,2
Savdo	267,5	481,0	191,1	361,5
Tashish va saqlash	7,7	23,4	1,5	19,4
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	16,5	16,4	7,4	7,3
Axborot va aloqa	6,9	35,2	5,6	33,4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	24,2	5,8	21,6	1,9
Boshqa turdagi xizmatlar	33,8	35,1	18,6	23,3

IV. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari

2024- yilning 1- yanvar holatiga kichik korxonalar va mikrofirmalarning debitor qarzdorligi 2 579,9 mlrd so‘m, kreditor qarzdorligi 4 295,2 mlrd so‘mga yetgan.

Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang‘ich (qayta tiklash) qiymati bo‘yicha bahosi 18 789,4 mlrd so‘m, asosiy vositalarning eskirish summasi 1 926,5 mlrd so‘mni tashkil etgan.



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari mlrd so'mda

	2023- yil	2024- yil
Yil oxiriga debitorlik qarzi	2 130,4	2 579,9
Yil oxiriga kreditorlik qarzi	2 419,1	4 295,2
Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi	7 018,2	18 789,4
Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi	1 519,9	1 926,5
Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati bo'yicha bahosi	34,3	21,7
Yil oxiriga nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi summasi	11,1	5,3
Tugallanmagan qurilishlar (o'rnatilmagan uskunalarni qo'shgan holda)	3 629,8	2 403,9

Ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum 1 228,7 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 201,2 mlrd so'mga ko'p demakdir. 2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning ulushi jami sof tushumning 4,1 % ini tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushumning eng ko'pi Qarshi shahri 431,7 mlrd so'm, Shahrisabz shahri 151,8 mlrd so'm, Koson 191,6 mlrd so'm, G'uzor 89,4 mlrd so'm, Dehqonobod 80,2 mlrd so'm, Qarshi 50,5 mlrd so'm, shuningdek, Yakkabog' 40,2 mlrd so'm tumanlariga to'g'ri kelgan.

Hududlar bo'yicha ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum hajmi va jamidagi ulushi

	Hajmi, mlrd so'm	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati:	1228,7	100,0
Qarshi shahri	431,7	35,1
Shahrisabz shahri	151,8	12,4
<i>tumanlar:</i>		
G'uzor	89,4	7,3
Dehqonobod	80,2	6,5
Qamashi	31,3	2,6
Qarshi	50,5	4,1
Koson	191,6	15,6
Kitob	36,9	3,0
Mirishkor	9,3	0,8
Muborak	27,4	2,2
Nishon	22,5	1,8
Kasbi	8,7	0,7
Ko'kdala	14,0	1,1
Chiroqchi	14,0	1,1
Shahrisabz	29,2	2,4
Yakkabog'	40,2	3,3



2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarning moliyaviy natijasi ya'ni foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari) miqdori 48,9 mlrd so'mni tashkil etdi. Shuningdek, 2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning sof foydasi (zarar) miqdori 32,4 mlrd so'mni tashkil etgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari (mlrd so'mda)

	2023- yil	2024- yil
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar sotishdan tushgan sof tushum	1 027,5	1 228,7
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar tannarxi	871,1	1 044,4
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foydasi (zarari)	18,1	48,9
Sof foyda (zarar (-))	8,4	32,4
Yil oxiriga asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymati bo'yicha bahosi	255,5	233,9
Yil oxiriga asosiy vositalarning eskirish summasi	60,7	56,9

V. Sanoat

2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 5 835,0 mlrd so'mni tashkil etdi. Bu esa 2023- yilga nisbatan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotini 3 156,5 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Hududlar bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi eng ko'pi, Qarshi shahrida 1 721,6 mlrd so'm, Mirishkor tumani 573,3 mlrd so'm, Muborak tumani 563,7 mlrd so'm, Qarshi tumani 499,5 mlrd so'm, Nishon tumani 492,4 mlrd so'm, Kitob tumani 426,6 mlrd so'm, Qamashi tumanida 271,3 mlrd so'mni tashkil etgan.

Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (ishlar, xizmatlar) hajmi (QQS va aksizsiz) (mlrd so'mda)

	Jami		Rahbari ayol kishi bo'lgan	
	Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mlrd so'mda		Amaldagi narxlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi mlrd so'mda	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Qashqadaryo viloyati:	2678,5	5 834,9	56,3	131,8
Qarshi shahri	769,7	1721,6	26,4	59,1
Shahrisabz shahri	166,8	230,5	2,4	2,4
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	55,9	114,1	2,9	3,9
Dehqonobod	29,1	30,3	2,1	1,3
Qamashi	118,3	271,3	2,5	12,3
Qarshi	370,2	499,5	1,4	2,7
Koson	84,8	217,7	10,0	33,5
Kitob	245,8	426,6	2,4	1,5
Mirishkor	192,8	573,3	0,0	0,0
Muborak	134,2	563,7	0,7	2,5
Nishon	26,7	492,4	0,6	0,6



Kasbi	236,6	43,7	1,1	3,3
Ko'kdala	24,1	38,5	0,4	0,9
Chiroqchi	40,2	191,7	0,0	0,0
Shahrisabz	90,0	242,7	1,6	2,2
Yakkabog'	93,3	177,6	1,8	5,7

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi 131,8 mlrd so'mni tashkil etgan.

2024- yilda rahbari ayol kishi bo'lgan kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi, jami kichik korxonalar va mikrofirmalar ishlab chiqargan sanoat mahsulotining 2,3 % ini tashkil etdi. Hududlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmining eng katta ulushi Qarshi shahri (59,2 mlrd so'm) ga to'g'ri keldi.

VI. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 1180,3 mln so'mni tashkil etgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi (2024- yilda).

	Hajmi, mln so'mda
Jami	1180,3
O'rmonchilik va yog'och tayyorlash	81,0
Baliq ovlash va akvakultura	120,9
Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatish	978,4

Hududlar bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmining eng ko'pi Qamashi tumani (139,6 mln so'm), Kasbi tumani (136,3 mln so'm), Nishon tumani (135,1 mln so'm), Qarshi shahri (109,2 mln so'm) va Shahrisabz tumani (91,0 mln so'm) ga to'g'ri kelgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi 93,5 mln so'mni tashkil etgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qishloq xo'jaligida, faoliyat turlari bo'yicha sotilgan mahsulot (tovar, ish, xizmat)lar hajmi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko'rsatishda 68,1 mln so'm, o'rmonchilik va yog'och tayyorlashda 11,0 mln so'm, baliq ovlash va akvakulturada 14,4 mln so'mni tashkil etgan.

VII. Qurilish


2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 5 057,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan qurilish ishlarini 71,0 mlrd so'mga oshishini ta'minladi.

2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining taqsimlanishi, yangi qurilish ishlarining rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta



qurollantirishda 3 020,1 mlrd so'm, kapital ta'mirlashda 988,9 mlrd so'm, joriy ta'mirlashda 351,9 mlrd so'm boshqa pudrat ishlarida 696,1 mlrd so'mni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining taqsimlanishi
(2024- yilda, mlrd so'm)



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Qarshi shahri (2 248,2 mlrd so'm), Koson tumani (410,3 mlrd so'm), Qarshi tumani (403,8 mlrd so'm), G'uzor tumani (402,5 mlrd so'm), va Shahrisabz shahri (243,4 mlrd so'm) da qayd etilgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hajmi(QQSSiz) (mlrd so'mda)

	Jami		Shundan ayollar rahbarligidagi korxonalarda	
	Amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi		Amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi	
	2023- yil	2024- yil	2023- yil	2024- yil
Qashqadaryo viloyati	4 986,0	5 057,0	26,2	109,9
Qarshi shahri	2 257,7	2 248,2	3,4	9,9
Shahrisabz shahri	195,6	243,4	2,4	1,7
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	427,1	402,5	1,0	0,3
Dehqonobod	43,7	48,8	2,1	0,1
Qamashi	86,7	72,0	0,0	1,8
Qarshi	524,8	403,8	0,0	2,2
Koson	290,6	410,3	10,7	81,5
Kitob	130,7	145,6	1,4	0,3
Mirishkor	48,7	49,7	2,0	2,9
Muborak	188,0	165,9	1,7	0,0
Nishon	112,4	92,3	0,2	0,1
Kasbi	83,1	87,8	0,0	0,2
Ko'kdala	46,9	97,3	0,0	0,0



Chiroqchi	183,7	163,9	0,9	6,6
Shahrisabz	185,4	231,8	0,2	2,4
Yakkabog'	180,9	193,6	0,0	0,0

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 109,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan bajarilgan qurilish ishlarini 83,7 mlrd so'mga oshganini ko'rsatadi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, kichik korxonalar va mikrofirmalar jami qurilish ishlarining 2,2 % ini tashkil etdi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalarda hududlar bo'yicha eng ko'p amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi Koson tumani (81,5 mlrd so'm), Qarshi shahri (9,9 mlrd so'm), Chiroqchi tumani (6,6 mlrd so'm) va Mirishkor tumani (2,9 mlrd so'm) da qayd etilgan.

Ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan amaldagi narxlarda o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmining taqsimlanishi, yangi qurilish ishlarining rekonstruksiya, kengaytirish, texnikaviy qayta qurollantirishda 59,9 mlrd so'm, kapital ta'mirlashda 41,1 mlrd so'm, joriy ta'mirlashda 3,1 mlrd so'm boshqa pudrat ishlarida 5,8 mlrd so'mni tashkil etdi.

VIII .Xizmatlar

2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi 4 048,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023 - yilga nisbatan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarni 984,3 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarning eng ko'pi Qarshi shahri (1 433,9 mlrd so'm), Koson tumani (300,2 mlrd so'm), Qarshi tumani (294,0 mlrd so'm), Kitob tumani (271,5 mlrd so'm), Shahrisabz shahri (236,4 mlrd so'm), G'uzor tumani (215,7 mlrd so'm) va Qamashi tumani (205,5 mlrd so'm) da qayd etilgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi (mlrd so'mda)

	Jami xizmat		Shundan: ayollar rahbarligida	
	2023- yil	2024- yil	2023-yil	2024-yil
Qashqadaryo viloyati:	3 063,8	4 048,1	208,1	245,0
Qarshi shahri	1 137,4	1 433,9	84,3	93,8
Shahrisabz shahri	194,8	236,4	21,7	16,8
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	214,4	215,7	10,3	27,4
Dehqonobod	59,0	84,0	14,2	17,2
Qamashi	108,0	205,5	2,5	5,6
Qarshi	186,9	294,0	10,7	7,1
Koson	193,0	300,2	20,2	33,3
Kitob	252,2	271,5	4,6	6,6
Mirishkor	46,5	111,4	3,6	3,1
Muborak	103,6	148,5	3,2	3,0
Nishon	91,6	121,1	5,7	3,9



Kasbi	61,9	95,3	6,0	2,3
Ko'kdala	54,7	57,7	1,0	3,6
Chiroqchi	150,3	180,5	0,9	1,1
Shahrisabz	82,7	147,9	12,9	14,5
Yakkabog'	127,0	144,7	6,2	5,7

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi 245,0 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarni 36,9 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlar hajmi, kichik korxonalar va mikrofirmalar jami xizmatlar hajmining 6,0 % ini tashkil etdi.

Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan) xizmatlarning eng ko'pi Qarshi shahri (1 433,9 mlrd so'm), Koson tumani (300,2 mlrd so'm), Qarshi tumani (294,0 mlrd so'm), Kitob tumani (271,5 mlrd so'm), Shahrisabz shahri (236,4 mlrd so'm), G'uzor tumani (215,7 mlrd so'm) da qayd etilgan.

IX.Savdo faoliyati

2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi 7 184,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ulgurji savdo tovar aylanmasini 1 365,9 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Hududlar bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining eng katta ulushi Qarshi shahrida (3 448,4 mlrd so'm), Shahrisabz shahrida (794,7 mlrd so'm) va Qarshi tumanida (510,2 mlrd so'm) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd so'mda)

	Ulgurji savdo		Chakana savdo	
	2023- yil.	2024- yil.	2023- yil.	2024- yil.
Qashqadaryo viloyati:	5 818,2	7 184,1	6 300,3	9 213,4
Qarshi shahri	2 699,3	3 448,4	2 405,8	3 384,2
Shahrisabz shahri	654,5	794,7	404,7	719,8
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	186,2	231,2	238,9	361,8
Dehqonobod	39,2	84,2	200,5	234,5
Qamashi	226,2	139,9	308,2	404,4
Qarshi	512,9	510,2	535,2	646,1
Koson	357,1	491,7	595,8	897,8
Kitob	350,5	493,2	395,8	614,2
Mirishkor	92,2	61,1	95,7	90,8
Muborak	118,2	95,0	178,0	246,6



Nishon	69,1	79,5	132,5	180,4
Kasbi	22,8	102,5	102,8	173,2
Ko'kdala	15,6	40,8	146,0	172,1
Chiroqchi	154,2	204,7	254,8	605,9
Shahrisabz	112,1	131,5	106,8	185,5
Yakkabog'	208,1	275,4	198,8	296,2

2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 9 213,4 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023-yilga nisbatan chakana savdo tovar aylanmasini 2 913,1 mlrd so'mga oshganini ko'rsatdi.

Hududlar bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasining eng ko'pi Qarshi shahri (3 384,2 mlrd so'm), Koson tumani (897,8 mlrd so'm), Shahrisabz shahri (719,8 mlrd so'm), Qarshi tumani (646,1 mlrd so'm), Kitob tumani (614,2 mlrd so'm), Chiroqchi tumani (605,9 mlrd so'm) da qayd etilgan.

X.Ovqatlanish bilan ta'minlash

2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalarning ovqatlanish bilan ta'minlash bo'yicha tovar aylanmasi hajmi 546,9 mlrd so'mni tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan ovqatlanish bilan ta'minlash tovar aylanmasini 153,6 mlrd so'mga ko'payishiga olib keldi.

Hududlar bo'yicha ovqatlanish bilan ta'minlash tovar aylanmasining eng ko'pi Qarshi shahri (249,2 mlrd so'm), Shahrisabz shahri (43,2 mlrd so'm), Nishon (38,9 mlrd so'm), Kitob (35,4 mlrd so'm), G'uzor (31,6 mlrd so'm), Shahrisabz (28,1 mlrd so'm), va Qarshi (28,0 mlrd so'm) tumanlarida qayd etilgan.

XI.Innovatsiya

2024- yilda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar 56 tani tashkil etgan. Bunda 2023- yilga nisbatan innovatsiyalar soni 19 taga oshgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan amalga oshirilgan innovatsiyalar sonining eng ko'pi, sanoatda 21 ta, savdo sohasida 13 ta, Qurilishda 12 ta, Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida hamda Sog'liqni saqlashda 3 ta, boshqa turdagi xizmatlarda 1 tani tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan joriy etilgan innovatsiyalar (2024- yilda).

	Texnologik innovatsiyalar, birlikda.	marketin g innovatsiyalari, birlikda	tashkiliy innovatsiyalar, birlikda	innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar, hajmi, mlrd so'm	texnologik innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd so'm
Jami	56	3	1	408,3	40,9
Qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3	-	-	1,4	0,8
Sanoat	21	1	-	284,3	21,5
Qurilish	12	-	-	24,7	10,4
Savdo	13	2	-	76,4	6,8



Tashish va saqlash	-	-	-	6,3	0,1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	-	1	5,4	0,2
Axborot va aloqa	-	-	-	0,6	-
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	-	-	2,7	0,8
Boshqa turdagi xizmatlar	1	-	-	6,6	0,3

Hududlar bo'yicha joriy etilgan innovatsiyalarning eng ko'pi Qarshi shahri (17 ta), Koson (7 ta), Kitob (6 ta), Shahrisabz (6 ta) tumanlarida qayd etilgan.

Hududlar bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan joriy etilgan innovatsiyalar (2024- yilda).

	Texnologik innovatsiyalar, birlikda.	marketing innovatsiyalari, birlikda	tashkiliy innovatsiyalar, birlikda	innovatsion tovarlar, ishlar, xizmatlar, hajmi, mlrd so'm	texnologik innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd so'm
Qashqadaryo viloyati:	56	3	1	408,3	40,9
Qarshi shahri	17	1	1	65,7	10,0
Shahrisabz shahri	5	-	-	25,2	0,2
<i>tumanlar:</i>					
G'uzor	3	-	-	29,8	5,6
Dehqonobod	1	-	-	2,5	2,5
Qamashi	3	-	-	45,6	1,3
Qarshi	-	-	-	54,8	9,6
Koson	7	-	-	1,0	1,0
Kitob	6	1	-	2,6	1,4
Mirishkor	-	-	-	85,6	-
Muborak	2	-	-	1,6	1,8
Nishon	1	-	-	0,3	1,3
Kasbi	1	-	-	1,1	1,1
Ko'kdala	2	-	-	1,7	0,0
Chiroqchi	2	-	-	66,9	2,7
Shahrisabz	6	1	-	23,6	2,3
Yakkabog'	-	-	-	0,1	-

2024- yilda ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan joriy qilingan innovatsiyalar 3 tani tashkil etgan. Bu esa 2023- yilga nisbatan innovatsiyalarni 1 taga oshganini ko'rsatdi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar bo'yicha uslubiy tushuntirishlar

Mikrofirma va kichik korxonalarining faoliyati to'g'risidagi statistik ko'rsatkichlar quyidagi ma'lumotlar asosida shakllantirilgan.

1 kb (yillik) "Mikrofirma va kichik korxonaning 2024-yil uchun hisoboti"ni mikrofirmalar va kichik korxonalar tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida tayyorlangan. Tarmoqlar kesimidagi ma'lumotlarni, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar statistik tasniflagichining ro'yxati asosida jamlangan ma'lumotlar bo'yicha tayyorlangan.

Mazkur ma'lumotlar tarkibiga yirik tijorat korxonalarini, byudjet va boshqa notijorat tashkilotlar, fermer va dehqon xo'jaliklari, sug'urta tashkilotlari va banklarning ko'rsatkichlari kiritilmagan.

Foydali havolalar

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar statistik tasniflagichining ro'yxati](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlarini
kuzatuv bo'limi

Ijrochi:
Y.Xolturayev
75 221-32-44 (7031)